



MUHAMMAD SODIQ QOSHG'ARIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYAGA OID QARASHLARIDAN TA'LIM JARAYONIDA SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Sobirova Nafisa Yangiboy qizi

Urganch davlat pedagogika instituti

Pedagogika kafedrası asistent o'qituvchi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10166663>

ARTICLE INFO

Received: 14th November 2023

Accepted: 20th November 2023

Online: 21th November 2023

KEY WORDS

Ta'lim tizimi, tarbiya jarayoni, "Odob as-solihin", "Tazkirai xojagon", tasavvuf.

ABSTRACT

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida tarbiyaga doir ilmiy asarlardan samarali foydalanish imkoniyatlari va uning ahamiyati haqida nazariy fikrlar berilgan. Shuningdek, Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir qarashlarining ijobiy ahamiyati haqida munozaralar yuritilgan.

Kirish.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida katta o'zgarish va islohatlar amalga oshirilmoqda. Lekin tarbiya masalasiga kelganda yildan-yilga bu borada muammolar ortib bormoqda. Hozirda olib borilayotgan tadqiqotlarning ko'pchiligi ta'lim jarayonini rivojlantirish asosida amalga oshirilmoqda, shu tufayli ham tarbiy masalasi oqsab qolmoqda. Zero, bizning mintaletimizda ta'lim va tarbiyani o'zaro teng olib borish lozim. Shu sababdan tadqiqot faoliyatimizni tarbiy jarayoniga qaratdik. Buni amalga oshirish uchun Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning ma'naviy-axloqiy qarashlarini ta'lim ta'lim jarayonida tadbiq etishga harakat qilamiz. Mutafakkir hayoti va ijodini tahlil qiladigan bo'lsak, u haqida bizgacha juda oz ma'lumot yetib kelgan. Lekin hozirgi paytda bizga ma'lum bo'lgan "Odob as-solihin" asarining o'ziyoq bizga uni mashhur pedagog olim sifatida tanitadi.

Munozara.

Biz mutafakkirning hayoti va ijodi orqali yuqori darajada tarbiyashunos bo'lganligi va olim tarafidan yaratilgan asarlarning mazmun-mohiyati haqida bilamiz. Bugungi kungacha olimning "Odob as-solihin" ("Yaxshi kishilar odobi"), "Zubdat al-masoyil" ("Masalalarning qaymog'i"), "Dur al-muzoxir" ("Ko'makdoshlarning durdonasi") hamda "Tazkirai xojagon" ("Xojalar tazkirasi") kabi bir qator asarlari yetib kelgan¹.

O'zida shaxs tarbiyasini yo'lga qo'yish muammolarini bayon qiluvchi asarlarni yaratish an'anasi mavjud bo'lgan davrda Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tarafidan turkiy tilda "Odob as-solihin" ("Yaxshi kishilar odobi"), "Zubdat as-masoyil" ("Masalalarning qaymog'i") kabi nodir asarlar yaratildi. "Odob as-solihin" asari besh marotaba, 1889, 1901 yillarda Toshkent shahrida hamda 1891, 1892 va 1986 yillarda Istanbul shahrida qayta nashr qilingan.

¹ K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quvqo'llanma.T.:O'qituvchi 2010-yil.



Ushbu asar nomi hamda mohiyatidan ham tushunarli bo'lganidek, unda oldin surilgan g'oyalar inson hayotiy faoliyatida muhim kasb etuvchi xulq-odob qoidalari xususida kishilar, shu jumladan, yoshlarga muayyan darajada ma'lumotlar yetkazishga xizmat qiladi. "*Odob as-solihin*" asarida ijtimoiy hayot va turmushda barcha inson tomonidan qat'iy amal qilinishi kerak bo'lgan zohiriy (*tashqi*) va botiniy (*ichki*) odob va ahloq qoidalari, ularning ijtimoiy ahamiyati, yoshlar tarbiyasini yo'lga qo'yishdagi o'rni va roli haqida alohida fikr-mulohaza bayon qilinadi. Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tomonidan yaratilgan "*Odob as-solihin*" asari olimning o'zi ta'kidlab o'tganidek, muqaddima va yettita bobdan tashkil topgan, barcha bobda 4 faslni aks ettiradi. Muqaddimada asarning maqsadi haqida ma'lumot keltiriladi. Asarning yozilishidan ko'zlangan maqsad borasida so'z yuritilar ekan, insonning ijobiy xulq-atvorga ega bo'lishini taqozo etuvchi ijtimoiy zaruriyat mohiyati yoritiladi. Asarda ilgari surilgan asosiy g'oya – insonlarning ijobiy xulq-atvorga ega bo'lishlari jamiyatda ruhiy xotirjamlik va moddiy farovonlikni qaror toptiruvchi asosiy omil ekanligini asoslashdan iboratdir. Alloma mazkur g'oya mohiyatini sharhlar ekan, inson odob-axloq qoidalarini egallay olmasa hamda ijobiy xulq-atvori bilan muaddab (odobli) va muzazzab (*toza*) bo'lmasa, nafaqat o'zi, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi degan qarashni ilgari suradi. ***Shu o'rinda quyidagi masnaviyni keltiradi:***

Beadab tanho va xudro dosht bad.

Balki otash dar hama ofoq zar.

Adabsiz nafaqat o'zi uchun yomonlik qiladi.

*Balki butun dunyoga o't qo'yadi).*²

Inson ichki va tashqi odob qonun-qoidalarining mazmunini to'laqonli ravishda tushunib, ularga qat'iy amal qilishi lozim. Inson odob-axloq qoidalarining mohiyatidan qaysi uslublar orqali xabardor bo'la oladi degan savolga javob berar ekan, olim ular yetuk mutafakkirlar tomonidan qoldirilgan qadr-qimmatli kitoblarda jam etganligi, ushbu asarlarning g'oyasi bilan tanishish orqali odob-axloq qoidalari va ularga amal qilish shartlari xususida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati borligini takror bayon qilishadi.

Olimning ushbu asarida komil inson bo'lib yetishishda kundalik hayot hamda amaliy turmushda o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi botiniy (*ichki*) va zohiriy (*tashqi*) odob-axloq qoidalari: salomlashish, ruxsat so'rash, muloqot, uxlash, yo'l yurish, mehmon kutish, ziyofat, ovqatlanish, shuningdek, er-xotin munosabatlarini yo'lga qo'yish odobi va ularga amal qilish shartlari borasida so'z yuritiladi. Suhbat ahlining o'zini tutishi, tozalik, ozodalik hamda safarga chiqish qoidalari ham asar mazmunining markaziy qismidan o'rin olgan. Muhammad Sodiq Qoshg'ariy "*Odob as-solihin*" asarida, kasal holini so'rash, ta'ziya va musibat odoblari haqida ham fikr yuritadi. Mazkur vaziyatlarda bajariladigan qoidalar mazmunidan boxabar bo'lish ham har bir inson uchun juda foydali bo'ladi degan umiddamiz.

Biron mo'minning bu hayotni tark etgani haqidagi xabarni eshitilganda boshiga musibat tushgan kishilarga ta'ziya izhor etiladi. Ushbu tadbir dafn marosimidan oldin yoki keyin amalga oshirilishi mumkin. Ta'ziya bildirish uch kungacha joiz, undan so'ng makruh deyiladi. Tobutni olib chiqib ketayotganlar sukut saqlashlari kerakligi, ayollar tobut ko'targan

² R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, *Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: Noshir 2009-yil.*



erkaklarga hamroh bo'lib, eshikka chiqmasliklari, boshiga musibat tushgan insonlar to'planishganlarida ovozni baland qilib, fig'on chekmasliklari, mayit dafn etilgach, har kim o'z ishiga ketishi, bir yerda to'planib o'tirmasliklari lozimligi, yig'ilish uyushtirish uchun turli tadbirlarni izlash va ularni o'tkazish bid'at ekanligi, biroq qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug', yoru do'stlarning turli taomlarni tayyorlab, boshiga muammo tushgan insonlarning uylariga yuborish odamgarchilikning ahamiyatli ko'rinishlaridan biri ekanligi ta'kidlab o'tiladi.

Xulosa.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Muhammad Sodiq Qoshg'ariy yaratgan "*Odob as-solihin*" asari jamiyat va yoshlarning ma'naviy-axloqiy xususiyatlarini barkamol bo'lishlarida katta ahamiyatga ega. Mazkur asar barcha tomonidan o'rganilishi va kundalik turmushda doimiy amal qilinishi kerak bo'lgan hulq-odob qoidalarining majmui sanaladi. Shuning uchun ham sharq pedagogikasi tarixida mutafakkirning asarlari o'zining ahamiyatlilik darajasi bilan ajralib turadi. Olimning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir qarashlaridan ta'limning barcha bosqichlarida keng foydalanishimiz mumkin. Bu ta'lim va tarbiya jarayonini teng olib borishga imkon beradi.

References:

1. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quvqo'llanma.T.:O'qituvchi 2010-yil
2. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: Noshir 2009-yil.
3. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf saboqdari. Buxoro, 2000. 78 bet.